

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY  
BANKI  
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**MUDDATLI OMONAT SHARTNOMASI № \_\_\_\_\_**

\_\_\_\_\_shahri

«\_\_» \_\_\_\_\_ .20\_\_y.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ (bundan buyon “BANK” deb yuritiladi) nomidan № \_\_\_\_\_ ishonchnomaga asosan faoliyat yurituvchi \_\_\_\_\_ bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ bir tomondan, va “\_\_\_\_\_” MCHJ (bundan buyon “OMONATCHI” deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi Direktor \_\_\_\_\_, ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**I. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Omonatchi milliy valyutada Bankka 00000000 (yozma summasi) so‘m miqdoridagi pul mablag‘larini omonat (bundan keyin matnda – Omonat) sifatida Bankka topshiradi, Bank esa ushbu mablag‘ni № \_\_\_\_\_ raqamli muddatli omonat hisobida joylashtirish uchun qabul qilish majburiyatini oladi va ushbu Shartnomada ko‘rsatilgan shartlar va tartibda qaytarishga majbur bo‘ladi.

1.2. Omonatga joylashtirilgan pul mablag‘laridan foydalanganlik uchun Bank 365 kunlik bazaviy davr hisobidan yillik \_\_\_% miqdorida foizlar hisoblaydi. Bank omonati summasiga foizlar pul mablag‘lari Bankka kelib tushgan kunning ertasidan boshlab, omonat Omonatchiga qaytarilgan yoki Omonatchining hisobvarag‘idan boshqa asoslar bo‘yicha chiqarilgan kundan oldingi kungacha hisoblanadi.

1.3. Omonat shartlari:

- Omonat shakli – Muddatli
- Foiz stavkasi – \_\_\_ % yillik;
- Omonat muddati – 365 kun;
- Omonat minimal miqdori – \_\_\_\_\_ so‘m;
- Omonatning maksimal miqdori – cheklanmagan;
- Omonatga qo‘shimcha to‘lov – qabul qilinmaydi;
- Omonat summasini qisman chiqarish (asosiy summani) – yo‘l qo‘yilmaydi;
- Prolongatsiya - nazarda tutilmagan;
- Kapitalizatsiya - yo‘l qo‘yilmaydi;
- Shartnoma valyutasi — so‘m.

1.4. Shartnoma asosida Omonatchi nomiga ochilgan omonat hisobi Shartnoma amal qilish muddati tugaganda (Omonat qoldiqlari bo‘lmasa) yopiladi.

1.5. Omonat bo‘yicha foizlar «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risidagi»gi 2023-yil 29-sentyabrdagi №3460-sonli Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

1.6. Shartnomaning amal qilish davrida Omonatchining hisob raqamiga ta'qiq solingan yoki hisobdagi operatsiyalar vaqtincha to'xtatilgan holatlarda, hisobdagi pul mablag'larini foydalanish imkoniyati bo'lmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi.

1.7. O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi talablariga O'zbekiston Respublikasi soliq rezidenti maqomini olmagan norezident omonatchilardan bank tomonidan omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar (daromadlar) summasidan manbaida soliq ushlab qolinadi va ushlab qolingani soliq keyinchalik davlat byudjetiga o'tkaziladi.

1.8. Agar muddatli omonatning qaytarish sanasi dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, omonatni qaytarish dam olish/bayram kunlaridan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi. Bu vaqtda omonatni qaytarish kunida Mijozga dam olish/bayram kunlari uchun qo'shimcha hisoblangan foizlar bilan birga to'lanishi kerak bo'lgan foizlar to'lanadi.

1.9. Agar Omonatchi shartnomada ko'rsatilgan omonat muddati tugashidan avval omonat summasini to'liq qaytarib olishni xohlasa, u bu haqda Bankni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan tartibda yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

## **II. TOMONLARNING HUQUQLAR VA MAJBURIYATLARI**

### **2.1. Bank majburiyatlari:**

2.1.1. Omonatchining pul mablag'larini mazkur shartnomada belgilangan miqdor va muddatlarda qabul qilish, qabul qilingan summalarning saqlanishi va ular bo'yicha foizlarning hisoblanishi uchun to'liq javobgarlikni ta'minlash.

2.1.2. Omonatchini muddatli Omonat shartlari bilan tanishtirish va batafsil tushuntirish.

2.1.3. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni himoya qilish, Omonatchi va Omonat to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqatgina amaldagi qonunchilikda belgilangan hollar va tartibda taqdim etish.

2.1.4. Omonatchi tomonidan taqdim etilgan pul mablag'larini hisobga olish uchun unga Bankda hisobvarag' ochish.

2.1.5. Har oyda mijozga shartnoma valyutasida shartnomada ko'rsatilgan foiz stavkasida hisobvarag' raqamiga foizlarni to'lash. Omonatchiga shartnoma bo'yicha foizlar to'lab beriladigan kun – har oyning 25-sanasi hisoblanadi. Agar foizlar to'lab beriladigan kun dam olish kuni bo'lsa, foizlar keyingi ish kunida to'lanadi.

2.1.6. Muddat tugagandan so'ng mazkur shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan omonat summasini Omonatchiga qaytarish.

2.1.7. Omonat sirini saqlash, Omonatga tegishli ma'lumotlar Omonatchining rozilgisiz uchinchi shaxslarga faqat qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda berilishi mumkin.

### **2.2. Bank huquqi:**

2.2.1. Muddat doirasida Omonatchining pul mablag'larini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish.

2.2.2. Davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Omonatchi e'tiroz bildirishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda tegishli choralarni (hisobdagi mablag'larga arest qo'yish, mablag'larni akseptsiz tarzda yechib olish, hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish va boshqalar) ko'rish.

2.2.3. Vakolatli davlat o'rganlari tomonidan hisob raqamga taqiq qo'yilgan taqdirda bunday taqiq olib tashlangunga qadar omonat summasiga foizlar hisoblashni to'xtatish.

2.2.4. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida, Omonatchidan uni identifikatsiya qilish va hisob bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumot va hujjatlarni talab qilish.

2.2.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish yoki ularni amalga oshirishdan bosh tortish.

### **2.3. Omonatchi majburiyatlari:**

2.3.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, 20\_\_yil \_\_\_\_\_ da to'lov topshiriqnomasi bilan muddatli omonat hisobvarag'iga 0000000 (yozma summasi) so'm miqdoridagi pul mablag'larini kiritish.

2.3.2. Ushbu Shartnoma shartlariga rioya etish.

2.3.3. Omonat qisman yoki to'liq qaytarilgan taqdirda, bu haqida Bankni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik ko'deksida nazarda tutilgan tartibda yozma ravishda xabardor qilish.

2.3.4. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish qonunchiligiga, shuningdek xalqaro iqtisodiy sanksiyalarga rioya etish.

### **2.4. Omonatchi huquqi:**

2.4.1. Mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va muddatda Omonat summasini hamda hisoblangan foizlarni olish.

2.4.2. Omonat bo'yicha belgilangan foiz stavkasi, hisob-kitoblar va Omonat holati to'g'risida Bankdan to'liq va ishonchli axborot olish.

2.4.3. Qonun hujjatlarida va Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida omonatni muddatidan oldin qaytarib olish.

## **III. OMONATGA OID SHARTLAR**

3.1. Muddatli omonat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, foiz stavkasi mablag'larning omonat hisobvarag'ida haqiqatda bo'lgan muddatiga qarab quyidagi shartlar bo'yicha qayta hisoblanadi:

-90 kungacha saqlanganlar uchun foizlar yillik 0% stavkada to'lanadi;

-91 kundan 180 kungacha yillik \_\_\_% stavkada to'lanadi;

-181 kundan 270 kungacha yillik \_\_\_% stavkada to'lanadi;

-271 kundan 364 kungacha yillik \_\_\_% stavkada to'lanadi.

Bunday holatda Omonatchiga yuqoriroq foiz stavkasi bo'yicha foizlar to'lab berilgan bo'lsa, qayta hisoblash natijasida esa pasaytirilgan foiz stavkasi qo'llanilsa, ortiqcha to'lab berilgan foizlar summasi Bank tomonidan omonatning asosiy summasidan ushlab qolinadi va qolgan qismi Omonatchining hisob raqamiga qaytariladi.

3.2. Bank tomonidan qabul qilingan Omonat mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 18 fevraldagi 1031-sonli «Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida»gi Qonuniga asosan kafolatlanadi.

3.3. Agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida Bank foiz daromadlari bo‘yicha soliqni ushlab qolishi kerak bo‘lsa yoki Omonatchi soliq to‘lashi kerak bo‘lsa, u holda Bank tomonidan mazkur shartnoma bo‘yicha to‘lanadigan foizlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ushlab qolinishi lozim.

#### **IV. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI**

4.1. Omonatdan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lash muddati kechiktirilgan taqdirda, Bank Omonatchiga kechiktirilgan to‘lov summasining 0,01 foizi miqdorida, kechiktirilgan har bir kun uchun penya to‘laydi, bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya to‘lanishidan qat’i nazar, Bank mazkur shartnomaning 1 va 2-bandlari shartlarini bajarishdan ozod etilmaydi.

4.2. Agar Omonatchi mazkur shartnomaning 2.3.1.-bandida nazarda tutilgan muddatlarda shartnoma bo‘yicha pul mablag‘larini hisobvarag‘iga o‘tkazmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01 foizi miqdorida penya to‘laydi, bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.3. Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar bu bajarilmaslik shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan favqulodda hodisalar (fors-major) natijasida tomon oldindan ko‘ra olmagan va oqilona choralar bilan oldini ololmagan yengib bo‘lmas kuch holatlari natijasi bo‘lsa. Fors-major holatlariga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan, xususan: harbiy harakatlar, texnik nosozliklar, tabiiy kuchlarning ta’siri (zilzila, suv toshqini, texnik nosozliklar va boshqalar), Hukumat qarorlari kiradi.

#### **V. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

5.1. Barcha nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar tomonidan muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi.

5.2. Kelishuvga erishilmasa, nizolar amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

#### **VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

6.1. Shartnoma imzolangan kundan kuchga kiradi va mazkur shartnomaning 1.3. bandida nazarda tutilgan omonat muddati tamomlanguniga qadar amal qiladi.

6.2. Mazkur shartnomaga har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va har ikki tomon tomonidan imzolanishi kerak.

6.3. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan shartlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

6.4. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ularning har biri bir xil yuridik kuchga ega.

6.5. Tomonlardan biri tugatilgan yoki qayta tashkil etilgan taqdirda, ushbu Shartnoma bo‘yicha barcha huquq va majburiyatlar uning huquqiy vorisiga o‘tadi.

#### **VII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART**

7.1. Ushbu Shartnomani tuzish va (yoki) ijro etish jarayonida Tomonlar, ularning affillangan shaxslari hamda xodimlari har qanday shaklda, bevosita yoki vositachilar orqali, har qanday shaxslarga ularning harakatlari yoki qarorlariga ta’sir ko‘rsatish, xo‘jalik faoliyatida noqonuniy afzalliklarni saqlab qolish yoki qo‘lga kiritish maqsadida pul mablag‘larini to‘lamaydi, to‘lashni taklif qilmaydi va bunday to‘lovlarga yo‘l

qo‘ymaydi, shuningdek boshqa moddiy boyliklarni berishni amalga oshirmaydi. Shartnomani tuzish va (yoki) ijro etish jarayonida Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari ushbu Shartnoma maqsadlari uchun qo‘llaniladigan qonunchilikka muvofiq pora berish yoki pora olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish, shuningdek jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirish sifatida baholanadigan harakatlarni amalga oshirmaydi.

7.2. Agar Tomonlardan biri ushbu Shartnoma maqsadlari uchun qo‘llaniladigan qonunchilikka muvofiq pora berish yoki pora olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish, shuningdek jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirish sifatida baholanadigan harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini buzsa, boshqa Tomon sud qaroriga asosan Shartnomani to‘liq yoki qisman bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega bo‘ladi. Mazkur bandga muvofiq Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Shartnoma bekor qilinishiga tashabbus ko‘rsatgan Tomon sud tartibida ushbu buzilish natijasida yuzaga kelgan haqiqiy zararni undirishni talab qilish huquqiga ega.

## VIII. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

**«BANK»**

**«OMONATCHI»**

\_\_\_\_\_  
Bank nomi

\_\_\_\_\_  
Mijoz nomi

\_\_\_\_\_  
Manzil

\_\_\_\_\_  
Manzil

\_\_\_\_\_  
X/r №  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
**Vakolatli shaxs lavozimi**

\_\_\_\_\_  
**Vakolatli shaxs lavozimi**

\_\_\_\_\_  
**F.I.O.**

\_\_\_\_\_  
**F.I.O.**